

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MULOQOT KOMPETENTLIGINI  
SHAKLLANTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI****Xoliqova Matluba Mardon qizi***Bulung'ur tuman MMTBga qarashli 20-umumta'lim maktabi Boshlang'ich ta'lim  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetentligini shakllantirishning lingvistik asoslari hamda o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan olib boradigan muloqoti haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *muloqot, inson, so'z, o'qituvchi, o'quvchi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются лингвистические основы формирования коммуникативной компетентности учащихся младших классов и общения учителя с группой учащихся.*

**Ключевые слова:** *общение, человек, слово, учитель, ученик.*

**Annotation:** *V dannoy state rassmatrivayutsya lingvisticheskie osnovy formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti uchashchixsya mladshix klassov i obshcheniya uchitelya s gruppoy uchashchixsya.*

**Key words:** *communication, person, word, teacher, student.*

Bolalar yoshlikdan avvalo, oilada, so'ngra ta'lim maskanlarida muloqotga o'rgatilib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri muloqot ko'nikmasini mashg'ulotlar tarzida shakllantirishidir

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi. Jonli muloqot  $\rightarrow$  o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir [1].

Muloqot deganda biz birgalikdagi ehtiyojlardan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir  $\rightarrow$  biriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlanish jarayonini tushunamiz.

Muloqot  $\rightarrow$  ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayirboshlash, o'zaro ta'sir va bir- birini tushunishdan iborat jarayon hisoblanadi. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishini o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar bir- biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadila. Muloqotning ikkinchi tomoni

muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki, harakat va holatlar ham almashinadi. Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir.[2].

Har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, darsda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatib borish muhim o'rin tutadi. Erkin hamda ijodiy fikrlash kishining muloqotga kirishishida, o'z fikrini erkin bayon qilishida, o'zganing fikrini to'ldirib, qo'shimchalar qila olishida, voqelikni idrok etib o'z qarashlarini ifoda eta olishida namoyon bo'ladi. Lekin, ko'pchilik o'quvchilar o'zlari o'qigan, ko'rgan, eshitgan voqealarini o'zgalarga gapirib berish tugul, bu voqealarga ijodiy, erkin va mustaqil fikr bildira olmaydilar.

O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot har qanday kasbiy faoliyatining barcha turlarida mavjud. O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchining integral fanlar asoslarini va o'quv tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi va o'quvchining jonli muloqoti, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi

Naslimiz davomchilari bo'lgan yoshlarimizni nafaqat jismonan baquvvat, balki, ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob bera oladigan, muloqot jarayonida erkin fikr yurita oladigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Milliy psixologiyaning asosiy vazifasi yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirishdir. Bunda muloqot katta ahamiyatga ega. Muloqot psixologiyasining asosiy maqsadi, avvalo yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishdir. Shuningdek, o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarga muloqot madaniyati, muomala odobini singdirish, guruh va jamolarda o'zaro munosabatlarni muloqotni shakllantirish orqali yaxshilashdir [2].

Shaxs muloqotini shakllantirishda avvalo, uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borishimiz kerak. Aytaylik, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo'llaydigan so'zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan insonlarga o'ziga xos so'zlar qo'llaniladi. Bunda so'zning ta'sir kuchi hisobga olinadi.

Ta'limda kreativlik  $\neg$  bugungi zamon talab qilayotgan ta'limdir. Biz ta'lim va tarbiya berayotgan yosh avlod hayot ostonasida qoqilmay, uchragan muammolarni o'zi mustaqil hal qila oladigan, zamonaviy texnika vositalaridan hech ikkilanmay bermalol foydalana oladigan, kishilar bilan muloqotga qiynalmay, tortinmay kirishadigan, erkin va ijodiy fikrlaydigan, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan komil insonlar bo'lib kamol topishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining roli katta. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada va guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib brogan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar, ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogic muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'quvchilar jamoasida sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir.. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa.

Ayniqsa, ushbu holat endigina o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida muammoli vaziyatlarni paydo qiladi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini doimiy nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, barcha o'quv muassasalari pedagogic jamoatchiligiga , ustoz o'quvchilar zimmasiga yuklatilishi lozim [3].

Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun har bir pedagog o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqqan holda, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetentligini shakllantirishda o'qituvchining roli katta. Bunda, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishi kerak. Avvalo, o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy pedagogika. Toshkent. 2018. B. 450-452.
2. Nam.Du. Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti. Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrası. Muloqot madaniyati fanidan ma'ruzalar matni. Namangan. 2013. B. 3-4
3. Xoliqov. A. Pedagogik mahorat. Toshkent "IQTISOD MOLIYA" 2011. B. 102.
4. <http://elib.buxdu.uz>.